Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316358

sifatida o‘zining tub mohiyatini namoyon etishi uchun yangi yangi makon bo‘lib xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini inson borlig‘ining murakkab va ko‘p omilli hodisasi sifatida o‘zining tub mohiyatini namoyon etishi uchun yangi yangi makon bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda “Kuch adolatda”, “Adolat esa qonun ustuvorligidir” degan chuqur ma’noli falsafiy tushuncha holda ijtimoiy hamkorlikning yuqori ko‘rinishi hisoblangan ijtimoiy sheriklik munosabatlari O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishning muhim omillaridan biri bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renesans” poyde-voriga tamal toshi qo‘yilib, jamiyat, erkin, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan islohot-larning faol ishtirokchisiga aylanayotgan bir davrda ijtimoiy sheriklik mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, yaqin yillarda O‘zbekistonni dunyoning 50 ta rivojlangan davlatlari qatoriga chiqishida, adolat va qonun ustuvorligi fuqarolik jamiyatining muhim sharti ekanligini teran his qilish, inson qadrini ulug‘lash, o‘z mehnati natijalaridan qoniqish hissini oshirish, turli ijtimoiy guruh va iatlamlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy–ma’naviy muhit shakllantirish jarayonlariga kuchli ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (A. Madvaliyev tahriri ostida). “O‘zbekiston milliy ensikilopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti T: 2015. 564-bet.
2. https://Lex.uz ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi T. “O‘zbekiston” 5-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi T. “O‘zbekiston” 24-bet.

TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING O’RNI VA IMKONIYATLARI

Toxirov Farruhbek Baxtiyorovich
TDIU Andijon fakulteti o’qituvchisi

Annotasiya: *Maqolada o’quv muassasalarida ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o’rni va imkoniyatlari, mazmuni va ulardan foydalanish usullari ko’rsatilgan.*

Kalit so’zlar: *ilg‘or pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, zamonaviy texnologiya,, metod, vitual- stend, internet, xalqaro tajriba.*

Bugungi XXI asrda ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Belgilangan ma’lum vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga etkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko’nikma va malakalarni shakllantirish, o’quv faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar

Published: 17.05.2024
Cite this article: Toxirov Farruhbek Baxtiyorovich (2024). Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316358
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

darajasini baholash o’qituvchidan professional pedagogik mahorat, kasbiy kompetntlilikni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bulgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

-ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;

-ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;

-ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;

-ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;

-ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;

-amalda bajarish orqali o’rganilishi;

-ikki tomonlama fikr-muloxazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega.

Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash talaba-yoshlarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Talaba-yoshlarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-yoshlarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. **Interfaol ta’limning asosiy mezonlari:** norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin amaliy ishlar soni ko’pligi, talaba-yoshlar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega.

Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o’qituvchiga, o’quvchilarga, ta’lim vositalariga bog’liq omillar deb atash mumkin. Ular o’z mohiyatiga ko’ra, ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi: o’qituvchilardan interfaol mashg’ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash, ya’ni tayanch maktablardagi mashg’ulotlarda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o’zlashtirganlik, muloqotga tayyorgarlik, o’zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o’z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko’nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg’ulotlarda vaqtdan unumli foydalanish zarur va shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni turini tanlash, tayyorlash hamda mashg’ulot o’tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo’lishi lozim.

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o’ziga xos farqlar mavjud bo’lib, har bir o’qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan

afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o’tkazish usullarini tanlashda to’g’ri hisobga olishi zarur.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’zining ijobiy samarasini ko’rsatadi va o’quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan samarali ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol, jismonan sog’lom, aqlan yetuk, zamonaviy bilimlar va kasblarni egallagan, tanqidiy va ijodiy fikrlashga qodir, intelektual salohiyati yuksak yosh avlod to’g’risida g’amxo’rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O.U. Avlaev, C.H. Juraeva, C.P. Mirzayeva «Ta’lim metodlari» Toshkent-2017.
2. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
3. O’.X.Maxmudov,M.H.Usmanbaeva,S.S.Rustamov «Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar» Toshkent-2016

FUNKSIYA VA UNI AMALIY MASALALARDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Kuchkarov M.U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti dotsenti, p.f.b.f.d.

Jamiyatda har qanday sohaning rivojlanishi, yuksaklikka yo‘nalishi shu soha mutaxassislarining intellektual salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Mutaxassislar ilmiy va amaliy salohiyatga ega bo‘lishlarining dastlabki bosqichiga oliy ta’limda erishadilar. Oliy ta’lim muassasasining nufuzi ham aynan, tayyorlanayotgan kadrlarning sifatliligi ya’ni, zamonaviy bilimlarni o‘zida mujassam qila olganligi, mustaqil fikrga egaligi va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga egaligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli farmonida ko‘zda tutilganidek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifasidir.

Shunday ekan, oliy ta’limda o‘quv fanlarining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarga mos keluvchi dastur asosida olib borilishi katta ahamiyat kasb etadi. Oliy matematikaning tushunchalarini iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari, ishlab chiqarish va texnik soha ta’lim yo‘nalishlari, qishloq va suv xo‘jaligi ta’lim